

“BREKZIT”DAN KEYIN BUYUK BRITANIYA ICHKI SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergashbayev Sherzod

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Amaliy siyosatshunoslik” magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 31.08.2025

Revised: 01.09.2025

Accepted: 02.09.2025

KALIT SO‘ZLAR:

2016-yil 23-iyun sanasida Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan referendum natijasida aholining 51,9 foizi Yevropa Ittifoqidan chiqish (ya’ni “Brekzit”) tarafdori bo‘ldi. Buyuk Britaniyaning YI tarkibidan chiqishi ichki siyosatida ham, tashqi siyosatida ham sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, ichki siyosatidagi transformatsiyalar, siyosiy partiyalar orasidagi kuch nisbatlari, xalqaro identitet, migratsiya siyosati va iqtisodiy strategiyalar qayta ko‘rib chiqila boshlandi.

Bundan tashqari, Brekzit jarayoni ichki siyosiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlarni qayta shakllantirdi. Hududiy muvozanatlar, ayniqsa Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyaning o‘zini o‘zi boshqarish istaklari kuchaydi. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat hozirgi siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish, balki ularning kelajakdagi istiqbollari belgilash uchun ham muhimdir.

Ushbu ishning boshqa tadqiqotlardan farqli tomoni yangi nazariyaning ingliz maktabi (English School) ning ishlatilishidir. Ingliz maktabi nazariyasi xalqaro tizimni faqat kuchga asoslangan an’anaviy realizmdan farqli ravishda qadriyatlar, institutlar va tarixiy meroslar asosida tushuntirishga intiladi. Garchi ingliz maktabi xalqaro munosabatlar nazariyasi

sifatida qaralgan bo'lsa-da, u Buyuk Britaniyaning ichki siyosatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ingliz maktabining asosiy prinsiplari — normativ qadriyatlar, institutlar ishonchliligi, siyosiy etik me'yorlarga tayanish — Britaniya siyosiy tizimi va davlat boshqaruvi tizimida muhim ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqish qarori ham ingliz maktabi nuqtai nazaridan baholansa, bu qarorning nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki normativ asoslari ham mavjud. Brekzitni qo'llab-quvvatlagan kuchlar ko'pincha Buyuk Britaniyaning suverenligi, milliy qadriyatlari va tarixiy mustaqilligini asosiy dalil sifatida keltirishgan. Bu yondashuv ingliz maktabining “davlatlar faqat kuch orqali emas, balki qadriyatlar orqali ham shakllanadi” degan g'oyasiga mos tushadi.

Xuddi shu kabi bu jarayonlarni siyosiy partiyalardagi o'zgarishlar bilan taqqoslasa ham bo'ladi. Brekzit jarayoni nafaqat iqtisodiy va tashqi siyosiy oqibatlarga, balki asosiy siyosiy partiyalar – Konservatorlar, Leyboristlar va Liberal-demokratlarning rivojlanish strategiyalari, ichki tarkibi hamda elektorat bilan munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Brekzitdan keyin Konservatorlar ham leyboristlar ham o'z pozitsiyalarini o'zgartirishga olib keldi. Liberal-demokratlar partiyasi referendum davrida ham, undan keyin ham eng izchil Yevropachilik pozitsiyasini egallagan partiya bo'lib qoldi.

Bundan tashqari ingliz maktabi nazariyasining asosiy prinsiplaridan biri dunyo jamiyatlari (world society) ga ko'ra boshqa jamiyatlardan ajralib turish identitlik masalasi alohida o'rin tutadi. Buyuk Britaniya tarixan o'zining mustaqilligi, dengizlar ortidagi imperiya sifatidagi roli va madaniy yakkaligi bilan ajralib turgan davlat sifatida qaralgan. 20-asrning ikkinchi yarmida Yevropa integratsiyasiga qo'shilgan bo'lsa-da, Britaniya xalqi o'zini “yevropalik” emas, balki “britaniyalik” deb hisoblashga moyil edi. Ushbu qarashlar 2016-yilgi referendumda o'zining yorqin ifodasini topdi.

Bu masalaga alohida e'tibor qaratilishiga asosiy sabablardan biri esa aynan migratsiya masalasi edi. Arab bahoridan so'ng, Yevropaga oqib kelgan migrantlarni nazorat qilish Buyuk Britaniya uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Brekzitdan so'ng Buyuk Britaniya hukumati erkin harakatlanish prinsipidan voz kechib, yangi migratsiya tizimini joriy etdi. 2021-yildan boshlab kuchga kirgan ball tizimiga asoslangan yangi migratsiya siyosati malakali ishchi kuchini afzal ko'rishni maqsad qilgan. Bu tizimga ko'ra, chet ellik ishchilar ingliz tilini bilish, oliy ma'lumotga ega bo'lish va taklif etilayotgan ishning yillik daromadiga qarab baholanadi.

Yangi tizim Yevropa Ittifoqi fuqarolari va boshqa davlatlardan kelayotganlar uchun bir xil shartlarni yaratdi, bu esa an'anaviy mehnat bozoridagi balansni o'zgartirdi. Xususan,

past malakali ishchilar oqimi sezilarli darajada kamaydi. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, restoran va parvarishlash sohalarida ishchi kuchi tanqisligini yuzaga keltirdi.

Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi mamlakat ichki siyosiy tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Referendumda qabul qilingan qaror nafaqat tashqi siyosatga, balki davlatning ichki hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Eng avvalo, siyosiy institutlar faoliyatida va partiyalararo muvozanatda yangicha jarayonlar kuzatildi.

Bundan tashqari, Brekzit siyosiy partiyalar faoliyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Konservatorlar partiyasi bu jarayonda asosiy tashabbuskor sifatida qat'iy pozitsiya egalladi va ichki siyosiy maydondagi yetakchiligini mustahkamladi. Leyboristlar esa muvozanatliroq yondashishga urinib, xalqaro hamkorlikni saqlash bilan birga milliy manfaatlarni ham hisobga olishga chaqirdi. Liberal-demokratlar partiyasi esa izchil ravishda Yevropachilik pozitsiyasini saqlab qoldi va Brekzitga qarshi chiqishda qat'iy bo'ldi. Bu jarayon siyosiy kuchlarning elektorat bilan munosabatini ham o'zgartirdi: jamiyatdagi qarama-qarshi kayfiyatlar partiyaviy strategiyalarni qayta shakllanishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, Brekzit Buyuk Britaniya ichki siyosatining ko'p qirralariga ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon hududiy masalalardan tortib partiyalar faoliyatigacha, identitet va qadriyatlardan tortib migratsiya siyosatigacha keng ko'lamda sezildi. Shu bois Brekzitni faqat tashqi siyosat yoki iqtisodiy qaror sifatida emas, balki ichki siyosiy tizimni qayta shakllantirgan omil sifatida ham baholash zarur. Kelgusida Buyuk Britaniya oldida turgan eng muhim vazifa – ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatdagi bo'linishni yumshatish va yangi sharoitga mos siyosiy yo'lni belgilab olishdir.